



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Azimov Abduraxmon Mamatovich¹

¹ Samarqand davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

OLIIY MAKTABDA MUAMMOLI TA'LIM

Annotatsiya. Mazkur maqolada, oliy maktabda dars berishning eng so'nggi metodlari: muammoli dars berish texnologiyasi, innovatsion texnologiyalar asosida dars berish, integratsiyalashgan metod, noan'anaviy modulli dars o'qitish metodi, rivojlantiruvchi dars o'qitish metodi, tabaqalashgan o'qitish, mediata'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodlari haqida o'z imkoniyatimiz darajasida fikr yuritishga harakat qildik. Bu metodlardan kutiladigan asosiy maqsad, yosh talabalar ongini rivojlantirish, davrimizning yetuk kishilari qilib tarbiyalashdan iboratdir. Yuqoridagi dars berish metodlari haqida fikr bildirilar ekan, shu sohaning yetuk olim va professorlari xulosalaridan foydalanib ish ko'rdik. Bayon qilingan fikrlarga o'z xulosamizni bildirdik.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, muammoli ta'lim, dars metodlari, obyektiv va subyektiv holat, muammoli vaziyat, integratsiyalashgan o'qitish, tabaqalashgan o'qitish, media ta'lim texnologiyasi, bilimlar uzluksizligi, noan'anaviy dars.

Аннотация. В этой статье представлены новейшие методы обучения



в старшей школе: проблемно-ориентированная технология обучения, обучение на основе инновационных технологий, интегрированный метод, нетрадиционный модульный метод обучения, развивающий метод обучения, дифференцированное обучение, медиа. Основаны на обучающих технологиях в меру наших возможностей. Основная цель этих методов - развить сознание юных студентов, воспитать их как зрелых людей нашего времени. Комментируя вышеупомянутые методы обучения, мы использовали выводы ведущих ученых и профессоров в этой области. Мы прокомментировали высказанные мнения.

Ключевые слова: *инновационные технологии, проблемное обучение, методы обучения, объективная и субъективная ситуация, проблемная ситуация, интегрированное обучение, дифференцированное обучение, технология медиаобучения, непрерывность знаний, нетрадиционный урок.*

Annotation: *This article presents the latest teaching methods in high school: problem-oriented teaching technology, teaching based on innovative technologies, integrated method, non-traditional modular teaching method, developing teaching method, differentiated teaching, media. Based on teaching technology to the best of our ability. The main goal of these methods is to develop the consciousness of young students, to educate them as mature people of our time. In commenting on the above teaching methods, we used the findings of leading scientists and professors in the field. We have commented on the opinions expressed.*

Keywords: *innovative technologies, problem learning, teaching methods, objective and subjective situation, problem situation, integrated learning, differentiated learning, media learning technology, continuity of knowledge, non-traditional lesson.*

KIRISH. Yuksak shiddat bilan olg‘a intilayotgan oliy ta‘lim tizimi, yoshlarni hayotga tubdan yangicha yondashishini talab qilmoqda. Darhaqiqat, davlat va jamiyatning kelajak ravnaqi yoshlarning faoliyatiga, ilm-ma‘rifatli darajasiga bog‘liq. Sivilizatsiyalashgan jamiyatning bo‘lg‘usi mutaxassislari



o‘zlarining ma’naviyati, barkamolligi, fidoyiligi, iymon-e’tiqodliligi, vatanparvarligi, alohida qobiliyatga ega ekanligi bilan yaqqol ajralib turishi zarur.

O‘qitishning har bir bosqichida o‘ziga xos muammo va yashirin sirlari mavjud. Ularga o‘quvchu-talaba o‘zining tayyorgarlik darajasi rivojlanish holatiga yechim beradi. Bunga rivojlantiruvchi ta’limning vazifasi dastlab talabalarni mustaqil bo‘lgan egallash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv malakalarini rivojlantirishdn iboratdir.

O‘quv jarayonida foydalanilayotgan texnik vositalar va texnologiyalar har xil bo‘lishiga qaramasdan, o‘quv materialini taqdim etish shakli va vositalariga bog‘liq ravishda o‘qitish sifati yuqori yoki qoniqarli darajada bo‘lishi mumkin.

Oliy maktabda muammoli ta’limni amalga oshirish bosqichlari mavjud. O‘quv muammolarining ko‘rinishlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) Muammoli holatning mavjudligi;
- 2) Sub’ektning izlanishli holatiga, ya’ni yechimiga tayyorgarligi;
- 3) Bir necha yo‘l bilan yechish imkoniyatlari.

Bular muammoli ta’limni amalga oshirish shartlaridir. Shu bilan birga oliy maktabda muammoli ta’lim bosqichma bosqich amalga oshiriladi. Bu haqda keyingi boblarda so‘z boradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy maktab talabalariga muammoli ta’lim berish juda murakkab ta’limiy jarayondir. Bunga dars berayotgan o‘quvchidan juda katta mahorat bilish, saviya va zamonaviy texnologiyalardan chuqur tushunchaga ega bo‘lishlikni talab qiladi.

O‘qituvchining zimmasiga dars berayotgan talabasining ongiga xalqning milliy-madaniy-tarixiy, intellektual, ma’naviy-axloqiy merosi innovatsion tushuncha va madaniyatning ilg‘or yutuqlari o‘z aksini topishi lozim. Shuningdek erishilgan ilg‘or yutuqlar vositasida yuksak ma’naviyatlikni shakllantirish, zamondoshimiz shaxsini yanada yuksaltirish, binobarin, mustaqil respublikamizning yangi barkamol avlodining tarbiyachilarini yetishtirishdek juda murakkab masala ko‘ndalang turganligini hech esdan chiqarmaslik zarur [1].

Muammoli ta’lim oliy maktabdagina o‘tilib qolmasdan boshlang‘ich

sinflarda ham o'tiladi. Muammoli dars nima? Muammoli dars shu o'tilayotgan mavzuning o'zidan o'quvchilar bilan birga mavzuning o'zidan muammoli vaziyat yaratish va birga shu misolni noan'anaviy tarzda yechishdir.

Bugubgi kunda talab yoki o'quvchi passiv eshituvchi emas, balki ta'lim jarayonidagi faol ishtirokchi bo'lmog'i, o'z ustida tinmay izlanadigan talabchan yigit-qizlar bo'lmog'i lozim.

O'z o'rnini topishga intilayotgan talabalar mustaqil fikrini bayon qila olishi, erkin va tanqidiy tafakkur, jamoa bilan ishlash, o'z fikrini himoya qila olish, haq-huquqlarini anglay olish imkoniyatlariga ega bo'lishi zarur. Shuning uchun ta'lim olishning yangi-yangi muammoli usullari, ya'ni aqliy hujun, munozara, debat, o'z o'ringni top, tanqidiy fikrlash, muz yorish, qorbo'ron va yana bir qancha qiziqarli nomdagi muammoli metodlardan foydalanib ish ko'rish mumkin. Shu haqda boshlang'ich sinflarda va oliy maktablarda muammoli dars o'tish bo'yicha bir qancha darslik qo'llanma, uslubiy qo'llanmalar, metodik yordam qo'llanmalari va turli hajmdagi nashrlare'lon qilingan [2].

T.G'ulomboyevning "Muammoli ta'lim-tafakkur rivojining asosi" deb nomlangan maqolasida ta'limga o'quv muammolarini keltirib chiqarish usullari, yo'llari mavjud. O'quv muammolarini nazariyalar va faktlar, nazariyalar va tushunchalar, alohida tushunchalar orasidagi bog'liqlik orqali tushuniladi hamda ajratib olinadi" degan g'oya ilgari suriladi [4].

E.G'ozdiyev "Oliy ta'limda muammoli o'qitish uslubiyati" maqolasida muammoli vaziyat o'z ichida to'rt bosqichni oladi deb tariflaydi [5]:

- 1) Muammo qo'shilishini inson tushunib yetishi, ya'ni topshiriq (misol yoki muammo) anglanishi-ifodalanishini tushunishi;
- 2) Muammoni hal etishga yordam beruvchi vosita, usul, yo'l-yo'riq, aqliy harakatlarni insonning o'zi izlab topishi va ularni ma'lum tizimga solishi;
- 3) Shaxs muammoni hal etish uchun saralangan usullarni avvalgi usullardan ajratish, ya'ni ularning salbiy tomonlarini olib tashlash, qolganlarini o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish;
- 4) Inson muammo yechimining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi uchun

tanqidiy nuqtayi nazardan tekshirib chiqish kabilar.

T.V.Kudryavsevning fikricha, muammoli o'qitish jarayoni talabalar oldida muammoli vazuyat yaratish, o'quvchi bilan o'qituvchi hamkorligida, o'qituvchuining umumiy rahbarligida, talablarning mustaqil bilish aqliy faoliyatini amalga oshirish natijasida mazkur vazuyatni anglashi, tan olishi, yechimini qidirishi va hal qilishi uchun vositalar tanlashda o'z aksini topadi.

Muammoli ta'lim subyekt va obyektning o'zaro bir-biriga ta'sir etishini ifodalab, noma'lum bo'lgan bilimlarni aniqlashda shaxsning intellektual faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltiruvchi bilish ehtiyojidan, oqibat natijada, egallash zarur bo'lgan noma'lum bilimlar, aqliy harakat vositalari, usullaridan hamda potensial rezervlar (ichki imkoniyatlar, instansionallik) tarzidagi ruhiy qo'zg'atuvchilardan iborat deb ta'riflaydi.

A.M.Matxoshkin ta'limoticha, muammoli vaziyatda yangilikni anglab yetmaslik, yechimni uddasidan chiqmaslik, mazkur holatdagi noma'lumlikni yangilik, noaniqlik va yangi tushuncha, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ehtiyoj mavjud bo'lishligi talab qilinadi. Va muammoli vaziyatni mujassamlashtiruvchi uch bosqichni taqdim etadi:

- 1) Muammoli vaziyatgacha bo'lgan vaziyat;
- 2) Muammoli vaziyat;
- 3) Muammoli vaziyatdan keying vaziyat.

Demak, bunda muammoning tug'ilishi, muammoning yechilishi va uning yechimi, aqliy ehtiyoj tufayli yakunlanganligi nazarda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Darsning samaradorligi asosan uni qanday rivojlantirish va tashkil qilishga bog'liq. Birinchi navbatda, har bir darsda faqat ta'limiy maqsad bilan cheklanib qolmay, talabalarni faollikka undash, ularni o'zlashtirish imkoniyatlari, fanning talablari va davlat ta'lim standarti me'yorlaridan kelib chiqib, darsning texnologik xaritasini tayyorlash kerak. Yoshlarni nemis faylasufi Immanuel Kant aytganidek, "Yoshlarni fikrga emas, fikrlashga o'rgatish kerak". Shunday bo'lgacha har bir o'quvchining o'tilgan mavzu bo'yicha aniq tasavvur va tushunchaga ega bo'lishi uchun darslik yoki kitob

bilan mustaqil ishlay olishga, o'z fikrini bemalol aytib, uni himoya qila olishga o'rgatish hozirgi ta'limning muhim shartlaridan biridir.

Bugungi kunning ta'lim jarayoniga bir necha xil pedagogic texnologiyalar faol tarzda qo'llanib kelinmoqda. Bunday faol pedagogic texnologiyalarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

- 1) Muammoli o'qitish texnologiyalari;
- 2) Integratsiyalashgan o'qitish texnologiyalari;
- 3) Axborot texnologiyalari;
- 4) Modulli o'qitish texnologiyalari;
- 5) Rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyalari;
- 6) Tabaqalashgan o'qitish texnologiyalari;
- 7) Faol (majmuaviy) o'qitish texnologiyalari;
- 8) O'yinli o'qitish texnologiyalari;
- 9) Hamkorlikka asoslangan o'qitish texnologiyalari;
- 10) Media ta'lim texnologiyalari va hokazo.

Ma'lumki, har bir darsning maqsadi, vazifasi bo'ladi. Bu odatda, topshiriq sifatida gavdalanadi. Mazkur topshiriqni bajarish, biror natijaga erishish uchun ma'lum usullar majmuasidan foydalaniladi. Bu usul turli vositalar orqali amalga oshiriladi. Bunga auditoriyadagi talabalarning faolligi, ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega. Binobarin, topshiriqni vositalar yoki ijtimoiy muhit orqali bajarib biror natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun yuqorida aytilgan usullar majmuasi ijtimoiy muhit holatini o'zaro uyg'unlashtirgan holda dars o'tish zarur. O'qituvchining mana shu oraliqda olib boradigan faoliyati-muammoli dars o'tish usuli deb nomlanadi. Dars yoki mashg'ulot chegaralanhan vaqt yoki ma'lum sondagi o'quvchilar bilan olib borilayotganligi uchun mazkur tizim shartli ravishda quyidagicha tasvirlanishi mumkin.

1) Topshiriq (maqsad, vazifalar) - 2) Usullar – 3) Vositalar – 4) Natija – 5) Ijtimoiy muhit.

Muammoli darsni shunday tashkil etish kerakki, bunda auditoriyadagi barcha talabalar faol bo'lishi zarur.



O'qituvchi bu jarayonning tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisidir.

Talaba o'zini erkin his qilishga sharoit yaratishi lozim. Shunda talaba o'z fikr-mulohazalarini erkin ayta oladi.

Mazkur metod o'zining oldiga qo'ygan vazifa-muammoni hal qilishda o'qituvchi bilan talabaning o'zaro faol ishtiroki orqali, bir birini tushinish orqali amalga oshirish lozim.

Muammoli metodning asosiy vazifasi:

1) Atroflicha, keng va chuqur fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish, asoslash va himoya qilish orqali;

2) Bilimlarning uzluksizligini ta'minlash orqali;

3) Nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish, harakatli amaliy faoliyatga amaliy kirib keta olish, ko'nikmalarini shakllantirish orqali;

4) Kichik guruhlarda va jamoat ichida ishlay olishda, o'zaro hurmat qilishga o'rgatish orqali;

5) Mustaqil va ijodiy ishlash ko'nikmalarini hosil qilish orqali erishiladi.

Bir narsani esdan chiqarmaslik kerak, ya'ni muammoli vaziyat insonlarning yosh davri xususiyatlari, axborotlarni egallash, o'zlashtirish darajasi, individual tipologik xususiyatlari, qobiliyatlarini hisobga olgan holda bo'lishi lozim.

Muammoli vaziyat ularning kuchiga, qobiliyatiga, imkoniyatiga mos qilib yaratilishi lozim. Lekin vazifa juda jo'n, o'ta oddiy yoki juda murakkab bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari tanlanhan muammo qandaydir tashqi muhitga, yo'llanmaga, qoidaga suyanmasligi kerak. Muammoni hal qilish yo'li, usuli, metodini vaziyatni tushungan holda talabalrning o'zlari mustaqil topa bilishi, ijodiy izlanib qo'llashlari lozim. Shuningdek, qo'yilgan tartib va qo'yilgan muammoni qanday mezonda hal qilish zarurligini o'zlari hal qilishlari kerak.

Tahlil va natijalar. Oliy maktabda beriladigan muammoli ta'limning qanday afzalliklari bor? Boshqa ta'limdan nimasi bilan farqlanadidegan savollar ko'ndalang turibdi.

Muammoli ta'limning eng foydali tomoni shundaki, bunda talaba o'z bilimi va tasavvuriga ishongan holda berilgan vazifani mustqail va ijodiy fkirlashga, o'z

ilmiy xulosasini ayta olish qudratiga ega bo'ladi. Mustqil fikrlay olish qobiliyatini bemalol ayta oladigan darajada bo'ladi. Chunki, dars berishning har bir bosqichida yangi dars-yangi muammo yangi fikrlarni keltirib chiqaradi. O'ziga xos katta kichik muammolarni yuzaga keltiradi. Buni hal qilish va yechishni chiqarish o'quvchi talabaning bilimi, tushunchasi, saviyasi va mahoratiga bog'liq. Demak, muammoli ta'lim noan'anaviy o'tiladigan darsga o'xshash yangidan yangi ilmiy vaziyatlarni kashf qilish va shu muammolarni o'quvchi va talaba bilan birgalikda yechish ko'nikmasidir [6].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muammoli darsni oliy maktabda o'tish juda foydali va zarurdir. Chunki bunday darslar talabalarni hissiz, e'tiborsizlik faoliyatidan jonli-mazmunliva ijodiy-tashabbuskor talabaga aylantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, muammoli dars o'tish, muammoli ta'lim berish uchun pedagogning o'zi eng avvalo puxta bilim va tushunchaga ega bo'lishi, keng tashabbusli hamda tajribali ustoz bo'lishi talab qilinadi. Talabalarni ijodiy aktivlikka boshlovchining o'zi bu sohaning mohir tashkilotchisi bo'lishi zarur. Aks holda, ta'limning muvaffaqiyati sezilmaydi.

Muammoli ta'limni barcha o'qituvchilar ko'ngildagidek qilib o'rgatolmaydilar. Aytganimizdek, buning uchun chuqur bilim, saviya, tajriba bo'lishi kerak. Quyidagi takliflar bor:

- 1) Kafedraning qarori bilan har oyda bir marta tajribali o'qituvchining darsini muammoli dars sifatida namunali qilib dars o'tishga imkoniyat yaratish;
- 2) Shu darsga barcha o'qituvchilar jalb qilinishini ta'minlash;
- 3) Muammoli darsni yaxshi tashkillashtirgan namunali o'quvchi rag'batlantirilsa;
- 4) Shu tashabbus boshqalarga namuna qilib ko'rsatilsa yaxshi bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchilar: K.Hoshimov, S.Ochilov, Toshkent. "O'qituvchi", 1995 yil



2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Asosiy qonun). -Toshkent, “O‘zbekiston”, 1992 yil
3. Quronov M. Maktab man‘naviyati va milliy tarbiya. -Toshkent, “Fan”, 1995 yil
4. G‘ulomboyev T. Muammoli ta‘lim- tafakkur rivojining asosi. -Buxoro. “Pedagogik mahorat” jurnali №4. 2002 yil
5. G‘oziyev E. Oliy ta‘limda muammoli o‘qitish uslubiyati, -Toshkent, “Ta‘lim va tarbiya” jurnali. №3-4. 2003 yil
6. Esonbayeva D.M. Noan‘naviy dars turlari o‘qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. -Toshkent. “Ta‘lim va tarbiya” jurnali. №3-4. 2003 yil
7. Fayziyev M.A. Dasturlash tilining “Operatorlar” bo‘limini kompyuter imitatsion modeli asosida o‘qitish metodikasi. “Fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasi” ilmiy-metodik jurnali (ISSN: 2181-1776). Published 2020-12-30. <http://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/11>